

Ikki parda, to'rt ko'rinish, muqaddima va xotimadan iborat drama

Ishtirok etuvchilar

Sarvar - Qaddi-qomati kelishgan, ko'rkam yigit, 35 yoshlarda. Xotini orqasida omadi kelib, millioner bo'lgan. Lekin boylikka hirs qo'ymagan, samimiy inson.

Dilora - Sarvarning xotini. 37B 38 yoshlarda. Lekin ancha yosh ko'rinadi. Ko'hlik juvon. Uddaburon, shaddod va yengiltak. Bir yig'lab, bir kuladigan ayol.

Mehriniso aya - Sarvarning onasi. 70 yoshlarda. Nihoyatda pokiza, shirinsuxan, mehribon, soddadil ayol,

Darveshali - Sarvarning qo'shnisi. Mashhur jarroh. Darveshtabiat, qaysar, to'g'riso'z odam. 48B 50 yoshlarda.

Gulnoza - Uning xotini va shogirdi. 26B 27 yoshlarda. Nozik-nihol, muloyim, suluv, shirinzaabon juvon.

Bo'rsiq - Sarvarning o'ng qo'li. Asl ismi Bo'rivoi. Lekin uni hech kim Bo'rivoi demaydi. Bo'rsiq deb chaqirishadi. Yum-yumaloq, xomsemiz, ayyor odam. 40 yoshlarda.

Domla-imom, xizmatkorlar, soqchilar, vrach va hamshiralar.

Voqea shu kunlarda bo'lib o'tadi.

Muqaddima

Sahna berk. Parda ko'tarilmagan. Lekin parda ortida yarim kavkazcha, yarim Yevropacha, yarim o'zbekcha sho'x kuy, ashula, kulgi, qarsaklar yangraydi. Parda ochiladi.

Bahor. Dala. Qandaydir go'zal o'tloq. Chetroqdagi stolda har xil yemish va ichimliklar. To'rt-beshta yigit davra qurib, chapak chalmoqda, davrada Dilora har xil nag'malar qilib raqsga tushmoqda. Uning kayfi baland. Bir chekkada, qo'li ko'ksida Sarvar qovog'ini uyib turibdi. Xotining qiligidan ensasi qotgan. Qo'shiq:

Tum-taka-tumni chalvoramiz,

Dilyaxonni olvoramiz,

Dilyaxon o'tl tug'sa,

Tum-taka-tumni chalvoramiz.

JO'R OVOZLAR: Voydod!

Kulgi, qiyqiriq. Yosh, xushqad bir yigit, ikki qo'lida ikki qadah bilan Diloraga yaqinlashadi.

Yigit. Jon opajon. Biz G'aribga ham bir nazar tashlang!

Dilora (o'ynashda davom etadi, mastona kuladi). Nari tur! Nega men senga opa bo'larkanman? Hali o'n gulimdan bir gulim ochilmagan, onasi o'pmagan jononni opa deysan, tirmizak!

Yigit. Binavat! Dilyaxon! Bu yolg'on dunyoga kepman, shaydoyingizman! Bir ishva, Dilyaxon, bir ishva biz G'aribga!

Dilora (xoxolab kuladi). Dilyaxonni bir ishvasi ming dollar turadi. Kuchingiz yetadimi, yigitcha!

Yigit. Ming dollar? Mana Sizga ming dollar! (Kissasidan bir dasta pul olib, Diloraning boshidan sochadi. Qiyqiriq, qarsaklar. Havodagi dollarni tutaman deb qoqishib ketadi. Yigitcha uni ushlab qoladi).

Dilora (mastona). Mard yigit ekansan, ke, bir o'pib qo'yay. (Yengilgina o'padi. Yana qiyqiriq, kulgi.)

Dilora. Sarvarjon! Sarvar aka! Yig'ishtirib oling. Hammasi yuztalik ekan dollari.

Sarvar shitob bilan yurib kelib Diloraning yuziga bir shapati uradi.

Dilora (dodlab). Nima qilyapsiz, gunohim nima mening?

Yigit. Azizlar! Bu qanaqa qiliq? Shunday go'zalga musht ko'tarish!

Sarvar. Men faqat go'zallar emas, senday xezlarni ham bir urishda jahannamga jo'nattanman.

(Uradi. Yigit gandraklab borib yiqiladi).

Sarvar. (Diloraga). Bundan keyin basharangni ko'rmasen! (Chiqadi.)

Dilora. Sarvar aka! Jonginam. (Orqasidan yuguradi, qoqilib yiqiladi. Yigitlar ushlab qolishadi.)

Birinchi parda

Birinchi ko'rinish

Sahna to'rida ikki qavatli ko'rkam koshona. Chap yonda did bilan qurilgan bir qavatli bino. Unda Mehriniso aya, oshpaz va xizmatkorlar turadilar. O'ng tomondagi devorning bir yonida qo'sh qavatli temir darvoza, darvoza yonida qafasdekkin soqchixonona. O'rtada atrofi gulzor, shinam shiypon. Endigina mo'ralagan oftob gulzorni yashnatib yuborgan. O'ng tomondagi uydan yoshi yetmishlarga borib qolgan, nihoyatda orasta kiyingan, istarasi issiqqina kampir - Mehriniso aya chiqadi. Aya shiypondagi qumg'onlardan birini olib, gullarga suv sepa boshlaydi. Darrov soqchixonona eshigi ochilib, to'pponcha taqqan yosh yigit otilib chiqadi va kampirning qo'lidagi idishga yopishadi.

Soqchi. Hoy, hoy, xolajon. Qo'ying bu ishingizni. Gullarga suv sepib, hovli supiradiganlar son mingta-ku.

A ya. Qo'yaver, bolam. Shu ishni qilsam ko'nglim yoziladi, orom olaman.

Soqchi. (Qumg'onga yopishib.) Siz-ku orom olasiz, ammo o'g'lingiz ko'rib qolsa bormi, mana bo'timizga (dumbasini shapatilaydi) shundoq tepadilarki, to'ppa-to'g'ri asfalasofilinga ravona bo'lamiz, ayajon.

(Darvoza ko'ng'irog'i jiringlaydi).

Soqchi. (Tirqishdan mo'ralab.) Yana anov nozanin. Do'xtir qo'shningiz. Namuncha tong otmasdan yo'rg'alaydigan bo'p qoldi bu sanam? Xo'jayin jigaridan urdiyov bu malakni.

A ya. Qayoqdagi gaplarni gapiravermay eshikni och, bolam. Davleniyamni o'lchagani keladi bu qizim. (Gulnozani ko'rib.)

Keldingmi, Gulnoza qizim. Bo'yginangdan onaginang o'rgilsin, qoqindiq, kela qol.

Gulnoza. Kechagi ukolimning ta'sirini bilib ketay degandim, xolajon.

A ya. Voy tilgingangga shakar, qizginam. Sen kelsang bormi, davleniyam o'lgur ham shataloq otib qochib qoladi...

Gulnoza. (kuladi). Chindan ham bugun chehrangiz tiniq. Yaxshi uxlab, yaxshi tushlar ko'rganga o'xshaysiz, xolajon. (yniga o'tiradi.)

A ya. E-e... yaxshi uyqu qayoqda deysan, do'xtir qizim. O'g'lim bilan kelinim orasidan ola mushuk o'tiptiki, halovat yo'q uyimizda. Bolajonim farzandlarini jonidan yaxshi ko'radi, sog'inadi, kelinim tushmagur, ularni opqochgani-opqochgan. O'g'lim o'z yog'ida o'zi qovuriladi. Onaizor, buni ko'rib men qovurilaman. Kelin yen-giltak bo'lsa qiyin ekan.

Gulnoza. Hozirgi yoshlarning hammasiyam shu.

A ya. Yoshlar deysan. Mana sen unaqa emassan-ku. Bir qoshiq suv bilan yutib yuboradigan suqsurekkina kelinchaksan. Unaqa emassan-ku sen.

Gulnoza. (Kuladi.) Erim meni boshdan qattiq ushlagan-da, xolajon.

A ya. Sarvarjonim ham anoyi emas. Qaysi bir ziyofatga borganlarida, kelinim bor bo'lgur, ichib olib, yigitlarga shilqimlik qilgan ekan, shartta haydab yubordi... Mana, oxiri nima bo'ldi. Bolajonim ichmas edi, ichadigan bo'ldi. Ko'rinishidan alpqomat bo'lsayam, bolaligidan yuragi nochor, qo'rqayapman.

Gulnoza. Ko'p kuyinavermang, xolajon, hammasi o'rniga tushadi.

A ya. Iloyim aytganing kelsin. Ering ikkovingni tunu kun duo qilaman. Xudo senlarga qo'chqorday o'g'il bersin, deb.

Gulnoza. (Qotib kuladi.) Qiz bo'lsayam mayli edi, xolajon. Yuring, ko'rib qo'yay sizni.

(Ichkariga kirib ketishadi. Koshonaning zinasida Sarvar ko'rinadi. Yosh, xushqad, xushsurat, egnida sportchilar kiyimi. U shiyponga o'tib, tugmachani bosadi. Hammayoq jarang-jurung bo'lib ketadi. Darhol har tomondan bir nechta chapdast yigitlar yugurib chiqishadi.)

Birinchi yigit. Amringizga muntazirmiz, sarvari a'zam.

Ikkinchi Yigit. Nonushta tayyor, ko'ngillari nimani istaydi, xo'jayin?

Sarvar. Jigarkabob. Shampan.

Birinchi yigit. Bir daqiqa. Darhol yest qilamiz.

(Ketadi.)

Sarvar. Anov Bo'rsiqvoy qayda? Peshin bo'ldi, haliyam inida hurrak otib, qornini silab yotibdimi, boqibeg'am.

Ikkinchi Yigit. Hozir oyog'idan sudrab chiqaman. (Ketadi.) (Sarvar esnaydi, qo'llarini yozib, badantarbiya qilgan bo'ladi. Zinada Bo'rsiq ko'rinadi, pak-pakana, qorni tarvuzday.)

Bo'rsiq. Biz xo'roz o'tmasdan turib, amringizni kutib yotibmiz, xo'jayin.

Sarvar. Nima balo, tungi ziyofatda so'yilgan qo'yni dumbasi bilan yamlamay yutganmisan, qorning homilador xotinning qorniday qappayib qopti. Xa-xa-xa. Biru nolKj, kaminani foydasiga. (Sharaqlatib qo'l urishtirishadi.)

Bo'rsiq. Ko'p kulavermang, hikmat ko'p bu qorinda, xo'jayin. Xizmatimiz bilan qaysiki vazirlikka bormay, ne-ne arkoni davlatlar bu qorinni ko'rib, sakrab turib ta'zim bajo keltirishadi.

Sarvar. (Soqchiga hazilomuz.) Pichog'ing bilan shartta yor qornini. Ko'raylik, qanaqa hikmat bor ekan buning qornida. (Kulgi. Xizmatkor yigit belidan bir gaz pichoq sug'urib oladi.)

Bo'rsiq. (Qornini do'ppaytirib.) Yor. Yoraver. Ichi to'la dollar. Sidirib olasan. (Kulgi.)

Bo'rsiq. Kul, kulaver. Xo'jayinning xizmatlarini ammingning buzog'i bajaradi. Amiratdan kelgan bir eshalon molni sen landovur opchiqasan bojxonadan.

Sarvar. Nima balo, birorta tomog'i teshik yo'qmi, bojxonada?

Bo'rsiq. Bor edi. Hammasining dumini tugishdi-ku. Gazit o'qimaysizda, bexabarsiz dunyodan.

Sarvar. U kuni topib kelgan aferist og'ayning qayda? Yo uniyam dumi tugildimi?

Bo'rsiq. Yo'-yo'q, amal kursiga o'tirayapti u. Biroq ishi yurishmayapti.

Sarvar. Ishi yurishmasa, darhol aloqani uz u bilan. Ishga olmasimdan turib, yo'ldan urding meni. Men unaqa pora-mora bilan ish qiladigan iprindi-siprindi tadbirkor emasman. Ter nomerini. Ter deypapman senga. Qo'rqsang, o'zim gaplashaman u shumshik bilan.

Bo'rsiq. Jon xo'jayin. Qattiq gapirmang. (Bo'rsiq kissasidan uyali telefonini olib teradi. Shivirlab.) O'zlari...

Sarvar. Bu men, akosi, tanidilarmi? Tanigan bo'lsangiz tunov kuni olgan qarzlaringizni qaytarib bering, akosi. Ha, shu bugun (quloq soladi.) Nima, nima? Kerakli odamlarning og'izlariga tiqqanman? Vaziyat o'zgarib qoldi? Menga qarang, akosi. Men vaziyat-paziyatlarimizni bilmayman. Qulog'ingizga quyib qo'ying. O'sha kuni Bo'rsiqvoyning uyida bergan va'dalaringiz, bir diplomat pulni bitta-bitta sanab olganlaringiz - hammasi kinoga olingan. G'iring desangiz, kassetani kerakli joylarga uzataman...

Bo'rsiq. (hayratlanib.) Qanaqa kino? Qanaqa kasseta? Hech nima bo'lmagan edi-ku.

Sarvar. Ishing nima? Bilib qo'y: bu aferistlar shoxida yursa, kamina bargida yuraman. O'ziyam ishtonini bulg'ab qo'ydi-yov, og'ayning. (Telefonni Bo'rsiqqa otadi, Bo'rsiq arang tutib oladi.)

Bo'rsiq. Shu ishingiz chakki bo'ldi-da, xo'jayin. Kerakli odam edi.

Sarvar. Kerakli odam emish. Boshda, ishga olayotganda aytgan edim-ku senga, men bunaqa qalang'i-qasang'i aferistlar bilan ishlamayman deb. Basharasi yoqmagan edi uning. Umrida qorni to'ymagan shumshik mushukka o'xshaydi. Boshqa topshiriqlarim nima bo'layapti?

Bo'rsiq. Qaysi birini aytyapsiz? Agar konvertatsiya bo'lsa, o'pkamni qo'litiqlab bankma-bank yugurib yuribman, xo'jayin.

Sarvar. Konvertatsiyani qo'yib tur. O'zim shug'ullanaman. Ko'rib turibman - qo'lingdan kelmaydi. Aytgan edim-ku: men uchun hayot-mamot masala - farzandlarim taqdiri deb. Bu ish nima bo'lyapti? O'zing aytgan eding-ku, tomog'i teshik yuristni topdim deb.

Bo'rsiq. Topgan edim. Ammo-lekin ayollar yili bo'ldi-ku bu yil.

Sarvar. (hayron). Ayollar yili bo'lsa nima bo'pti?

Bo'rsiq. Nima bo'lardi? Ayollar dastidan teshik-teshikka kirib ketdiku erkak zoti. Xotiningiz Diloraxonning tili bir qarich bo'ldi-ku.

Sarvar. Xotini emas u. Taloq qilganman uni. Uch taloq. Farzandlarim kerak menga, farzandlarim.

Bo'rsiq. Uch taloq tugul, ming taloq qilsangiz ham sud ajrim qilmaganmi hali? Qilmagan. Ayollar yilida poraga sotilib, erkaklar foydasiga hal qilasanmi ishni deb, Diloraxon shunaqa o'yin ko'rsatyaptiki, kiradigan teshik topolmay qopti tomog'i teshik sudKjya. Sichqonning ini...

Sarvar. (bo'shashib.) Ming tanga de?

Bo'rsiq. Ming tanga emish. Ming dollar deng, xo'jayin. Xotiningiz yuristga hozir miyangni qatig'ini chiqaraman deb, stulni otgan ekan, u bechora stolining tagiga kirib ketibdi. O'xshayaptimi?

Sarvar. Tushunmadim gapingga.

Bo'rsiq. Xotiningizga o'xshayaptimi deypapman. Nimasiga tushunmaysiz?

Sarvar. Buyog'i nima bo'ladi endi? Shu arzimagan ishning uddasidan chiqolmasang, nimaga ishga oldim sen qorinvoyini. Nimaga to'layapman jaraq-jaraq pullarni.

Bo'rsiq. Hali oqlaymiz non-tuzingizni. Ammo-lekin... Bir qoshiq qonimdan kechsangiz sizga aytadigan bir gapim bor, xo'jayin.

Menga qarang, jon og'ayni. Nima qilasz shu xotin bilan ajrashib? Axir insof bilan aytganda sizniyam, meniyan odam qilgan shu

xotin-ku? Kim edik bizlar? Men o'zingiz aytgan iprindi bir pattachi edim, bozorkom qildi. Siz tachka haydab yurgan bir yigitcha edingiz. Rost, juda kelishgan, ketvorgan yigitcha edingiz. Shu xotin sabab, millioner bo'ldingiz. Lekin uyam qanaqa juvon edi? Butun shahar uning supermarket do'koniga mol olgani emas, husni-jamolini tamosha qilgani kelardi. Hozir ham ko'chada yursa, ne-ne erkaklar qayrilib qaraydi. Shahzodaning ishqiqi baqaga tushibdi, deganlaridek...

Sarvar (shartta yoqasidan oladi.) Nima demoqchisan, shaytonni yo'ldan urgan iblis? Dilon shahzoda, sen qurbaqa eding, demoqchimisan?

Bo'rsiq. Yo'-yo'q. Siz ham zo'r ekansiz, tachkachidan shu darajaga yetdingiz. Kimsan, Sarvar biznesmen, degan nom chiqardingiz. Mana bunaqa koshonalar qurdingiz.

Sarvar. Kecha aytdim-ku senga. Mening shaxsiy ishlarimga aralashma deb... Shampan qani? Jigar kavob qayda?

Bo'rsiq. Jon xo'jayin. Qo'ying shu ichkilikni. Kechasi yuragingiz yomon bo'lib, o'takamni yorib yubordingiz-ku axir.

Sarvar. Ichkilikdan emas, farzandlarimni sog'inganimdan darz ketyapti yuragim? Hoy, kim bor? Hamma o'lib qoldimi bu la'nati koshonada?

(Ichkaridan. "Sho'ttamiz, sho'ttamiz", degan ovozlar eshitildi, so'ng bir yigit barkashlarda kabob va shampan olib chiqadi.)

Quy. To'ldirib quy. Bu qorinvoyga ham.

Bo'rsiq. Yo'-yo'q. Bilasiz-ku, og'zinga ham olmayman, xo'jayin.

Sarvar. Bilaman. Bir shoir aytgan ekan: otadiganlardan yomonlik chiqmas ekan, otmaydiganlardan chiqar ekan hamma yomonlik, degan ekan. (Ust-ustiga ikki qadah otadi.)

Bo'rsiq. Oling, olavering. Xizmatkorda zabon yo'q. Boshimizni egib turaveramiz. Ammo... egilgan boshni qilich kesmas, degan ekan bir mashoyix.

Sarvar (hazilomuz.) Qilich hayf sen pattachining ahmoq boshingga. (Birdan bo'shashib o'zini kresloga tashlaydi.) Jon do'stim. Bir balo qil bu ishni. Xohlasang "Mersedesim"ni ol. Istasang, "Volvam"ni. Ammo bir balo qilib, to'g'rilab ber, bu ishni. O'g'ilcham meni qamchilab, eshshak qilib manganida, qizalog'im polga cho'klatib tuya qilib o'ynaganida, mendan baxtiyor inson yo'q edi bu dunyoda. Gapimga ishon, do'stim. Bo'rsiqvoy. Bo'rsiqqinam. Kechalari tushlarimga kiradi farzandlarim. Ular ham meni yo'qlashar emish. Yo'qlab, yig'lashar emish. To'g'risini aytсам, hozirgacha pushaymon qilaman bu xotinning tuzog'iga ilinganimdan.

Xotinning marhamati bilan boyvachcha bo'ldi, degan umrbod o'chmas tamg'ani peshonamga bosib, boyvachcha bo'lish nima kerak edi menga? Undan ko'ra och qornim, tinch qulog'im deb, tachkamni sudrab yuraversam bo'lmasmidi, og'ayni? (Darvoza qo'ng'irog'i qattiq jiringlaydi. Temir eshikda Dilon ko'rinadi. U yo'lini to'sgan qorovulni itarib yuborib ichkariga kiradi).

Bo'rsiq. (Shivirlab.) Hizirni yo'qlasak ham bo'larkan. Ana keldilar, sizni boyvachcha qilgan xonimcha.

Dilon. (Qorovulga.) Daf bo'l, hezalak. Yo meni tanimadingmi, muttahaam?

Sarvar. (Shivirlab.) Men quy bo'ldim, o'zing gaplashaver, Bo'rsiq.

Dilon. To'xta. Sarvar. Kimdan, qayoqqa qochyapsan? O'z xotining, Olloh qovushtirgan jufti halolingdan qochasanmi?

(Sarvar quloqlarini berkitib, kresloga cho'kadi. Bo'rsiq Dilon tomon pildiraydi.)

Bo'rsiq. Keling, Dilonaxon. Eson-omonmilar? Kayflari chog'mi?

Dilon. Bo'rsiq bo'lsang ham ilonday avraysan-a, burgaga tuzoq qo'ygan lo'ttivoz? Qayoqqa chopypasan, qorningni larzon-larzon qilib.

Bo'rsiq. Ko'rib turibsiz-ku, sizga peshvoz chiqdim-ku, opajon?

Dilon. Mengami yo kissangni dollarga to'ldirib, anov poraxo'r yuristtingga shoshayapsanmi?

Bo'rsiq. Yo'-yo'q, opajon. (Shivirlab.) Kamina hech qachon sizga qarshi ish qilgan emasman. Sizni yaxshiligingizni unutgan odam ko'r bo'ladi, opajon, ko'zi oqib tushadi.

(Bo'rsiq chetlab-chetlab boradi-da, birdan shataloq otib o'zini darvozaga uradi.)

Dilon. Ha, yer yutgur, shumtaka. Meni ilonday avrab, quy bo'lishini qarang buni.

Sarvar. (Soqchiga.) Nega kiritding bu sayroqini. Opchiqib tashla ko'chaga.

Soqchi. Menga qarang, opajon...

Dilon. Yaqinlashma menga. To'pponchangni qiningdan sug'urib olib, peshonangdan qarsillatib otaman. (Sarvarga.) Ha, nega kirmas ekanman. Behayomanmi, shallaqimanmi - ikki farzandingni onasiman. Tuqqan onasiman. Mengayam quy shampaningdan. (Ichadi, tahdid bilan.) Yodingda bo'lsin: agar men topgan dollarlar bilan anovi sotqin yuristning og'zini moylab o'z foydangga hukm chiqartiradigan bo'lsang... Meni tuqqan farzandlarimdan judo qiladigan bo'lsang...

Sarvar. Xo'sh, xo'sh. Nima qilasan?

Dilon. O'sha kuniyoq o'zinga ham, farzandlarimning ust-boshiga ham benzin sepib, o't qo'yvoraman.

Sarvar. (Orqasiga tisarilib.) Sen... Aqlingdan ozib, jinni bo'p qolmadingmi mabodo?

Dilon. Jinni bo'lsam... sen jinni qilding meni. O'sha kecha mendan qutulish uchun oborgansan anov haromi jo'ralaring davrasiga. Ichirib, mast qilib, o'zing pinhona juftakni urib qolgansan.

Sarvar. O'sha kecha qilgan behayo-besharm qiliqlaring yodingdan chiqibdi. Iprindi-siprindi g'animlarimga qoshlaringni uchirib, ko'zlarining suzib, shahvoniy muqomlar qilganing, mast-alast o'pishganlaring - hammasi esingdan chiqibdi sening.

Dilon. Nima bo'lsayam o'zing boshlab bording-ku o'sha kechaga. Bunaqa ekan, nega obording o'sha nopok mayxonaga. Sinamoq maqsadidami?

Sarvar. Yo'q. Men seni sinamoq emas, raqiblarimning ko'zini o'ynatmoq niyatida oborgan edim. Mana ko'rib qo'yinglar, qanday muloyim, qanday odobli, men uchun jonini fido qiladigan umr yo'ldoshim bor, ko'rib qo'yinglar, nomardlar, demoq maqsadida, iftixor qilmoq niyatida oborgan edim seni. Sen bo'lsang...

Dilon. (yolvorib.) Jon Sarvarjon. Akajonim mening. O'sha kecha erkalik qilsam qilgandirman, yengillik qilgan bo'lsam qilgandirman. Lekin, tepamda xudo, biror it tekkani yo'q jismimga. Jismim ham pok, vijdonim ham (birdan sizlashga o'tib), Sarvar aka. Jonim, jonginam. Ko'zimni ochib ko'rgan jufti halolim. Agar gunoh qilgan bo'lsam kechiring men baxtiqaroni (yig'laydi.) Kechiring. Xohlasangiz, tiz cho'kib oyoqlaringizni o'paman.

(Sarvar uni ushlab qoladi.)

Sarvar. Yo'q, singan ko'zani qayta tuzatib bo'lmas, Dilon. Tuzatganda ham yamog'i qoladi uning. Undan ko'ra, ayt: mendan nima kerak senga? Uy desang uy, pul desang pul, mashina desang mashina - hammasini muhayyo qilib berdim. Tag'in nima kerak?

Dilon. Siz. Siz keraksiz, Sarvar aka. Siz. Sizensiz yorug' dunyo qorong'u menga, jonim. Jonginam, haydamang meni.

Sarvar. (Sarosimada suv tutadi.) Dilon... O'zingni bos. Odamlar ko'rsa nima deydi.



Dilora. Ko'rishsa ko'rishaversin. Shu xonangizdan bitta-yu bitta hujra bersangiz bo'ldi. Bolajonlarim bilan kelib turay. Mayli, boshqa xotin oling. Men xizmatlaringizni qilay. Cho'ri bo'lay, malay bo'lay. Faqat haydamang. Sizni ko'rib yurish bahridan judo qilmang, men baxtiqaroni.

(Yana tiz cho'kmoqchi bo'ladi. Sarvar yana ushlab qoladi.)

Sarvar. Bas qil, Dilora. Art ko'z yoshingni. Jonimga tegdi bu dodi-faryoding.

Dilora. E, xudo. Gunohim nima men sho'rlikning. Gunohim - kuni kecha do'konimda tachka haydab yurgan bu go'rso'xtani yaxshi ko'rib qolganimmu? Gunohim - gulday yoshligim, bu ko'rkam go'zalligim, do'konim, bor bisotimni bir kulib boqishimga zor bo'lib, bosgan izimni o'pib yurgan bu go'rso'xtaga in'om qilganimmu? Gunohim nima mening?

Sarvar. (Hamiyati ko'zg'ab.) Mening tillalarim-chi? Dadam rahmatli bergan, bobomdan qolgan tillalar...

Dilora. Topgan o'n tillangni yuzimga solmoqchimisani? O'n tillangni ming tilla qilib bergan kim? Mana shu yomon Dilora.

Sarvar. (Ko'ngli bo'shab.) Dilora. Quy endi. Qiynavording-ku odamni. (Soqchiga.) Opangni opchiqib, mashinada olib borib qo'y, uka.

(Soqchi Diloraning qo'ltig'idan oladi.)

Soqchi. Yuring, opajon. Yura qoling, mashina tayyor.

Dilora (Sarvarga.) Haydayapsanmi? Itday quvayapsanmi? Ollo qovushtirgan jufti halolingni (yana telbalanib.) Mayli, quv. Hayda. Haqorat qil. Faqat boyagi gapim yodingdan chiqmasin. Mabodo, farzandlarimizni mendan tortib oladigan bo'lsang...

uchchovimizning ham kulimizni olasan. Jismimizni emas, kulimizni dafn etasan.

Sarvar. (Toqati toq.) Buni daf qil dedim senga. (Soqchi Dilorani sudraydi. Dilora unsiz yig'laganicha unga bo'ysinib, qoqilib-surilib orqasidan yura boshlaydi-yu, ayaning xonasidan chiqqan Gulnozani ko'rib, yulqinib soqchining qo'lidan chiqadi.)

Dilora. Ha-a... Gulnozaxon. Nega bu dargohga serqatnov bo'p qoldilar desam... Bilaman, hammasini bilaman. He, yuzing qursin.

Lochinday ering turib, mening jufti halolim bilan don olishgani uyalmaysanmi, behayo.

(Gulnoza kaftlari bilan yuzini yashirganicha turgan joyida tosh qotadi.)

Sarvar. (Soqchiga baqiradi.) Men senga nima dedim. Yo'qot, bu iflosni.

Dilora. Xudoga soldim sen qiltiriqni, ikkalovingni ham xudoga soldim.

(Soqchi yig'lagan Dilorani qo'lidan tortib olib chiqib ketadi. Gulnoza hamon kaftlari bilan yuzini yashirganicha darvoza tomon yuradi. Sarvar tez borib uning yo'lini to'sadi.)

Sarvar. Gulnozaxon. Ko'nglingizga olmang, uning gaplarini. Ko'rib turibsiz-ku, telbalanib qolgan u.

Gulnoza. (Sekin.) Meni qo'yib yuboring, Sarvar aka. (Birdan o'ksib, unsiz titrab yig'laydi.) Qaysi gunohlarim uchun bu haqorat, bu malomat, bu bo'hton.

Sarvar. Iltimos, yig'lamang, Gulnozaxon. Siz shunday... pokiza insonsizki, sizga hech bir tuhmat, hech bir bo'hton yopishmaydi. Yuqmaydi, sizga...

Gulnoza. Rahmat. Men boray.

Sarvar. Iltimos qilaman, xafa bo'lmang. Mendan... Xafa bo'lmang...

Gulnoza. Sizdan nega xafa bo'lay. Men o'zimdan xafaman. Bu gaplardan keyin, men endi bu uyga, xolamlarning oldiga qanday kelaman? Qaysi yuz bilan kelaman.

Sarvar. Yo'-o'q. Siz oyimlarning bitta-yu bitta suyanchig'isiz, ovunchig'isiz. Faqat oyimlar emas... men... mening ham...

Gulnoza. Qo'ying, bu gaplarni...

Sarvar. Yo'q, rost, meni qo'rqitmang. Yuragimni sanchitmang...

Gulnoza. Yuragingiz sanchisa... Erimga - Darveshali akamlarga ko'rining. Bilasiz, u kishi katta jarroh...

Sarvar. Bilaman. Eringiz ulug' jarroh. Ammo mening yuragimni hech bir jarroh davolay olmaydi. Yuragimni bittayu bitta do'xtir davolay oladi, u ham bo'lsa...

Gulnoza. Iltimos: bu yog'iga o'tmang. Shu gapda to'xtang...

Sarvar. Nega? Dilimdagi rozimni aytib qolay...

Gulnoza. Qo'ying, bilaman, hammasini bilaman. Faqat siz ham shuni bilib qo'yingki, siz o'ylagan reja hech qachon, hech qachon ro'yobga chiqmaydi.

(Sarvarning yonidan o'tib, darvoza tomon yo'naldi. Sarvar bir-bir bosib, shiyponga chiqadi va yuragini silaganicha o'rindiqqa suyanadi. Uydan Mehriniso aya chiqadi.)

A ya. Birov keldimi, bolam. Qulog'imga shovqin-suron, baqir-chaqir kirkanday bo'ldi. (Yoniga o'tiradi.) Nega yuragingni changallaysan. Og'riyaptimi?

Sarvar. Oyijon... Oyijonginam. Ayting-chi, meni nega tug'dingiz?

A ya. Bu nima deganing, bolajonim. Seni menga xudo bergan ekanki, tug'dim-da...

Sarvar. Xudo bergan bo'lsayam... tug'masangiz bo'larkan, oyijon.

(Onasining tizzasiga boshini ko'yadi.)

Parda

Ikkinchi ko'rinish

Chog'roqqina hovli. Hovlining to'rida bir tup o'rik. O'rik shoxiga arg'imchoq osilgan. Sadarayhon va atirgullar ekilgan gulzor o'rtasida do'ngalak stol, stol atrofida to'rtta kreslo. Stolda dori-darmon va jarrohlik uskunalari solingan quticha, quticha yonida telefon, bir-ikki shisha "Toshkent" suvi. Parda ochilganda stol atrofida asabiy aylanib yurgan Darveshali ko'ramiz. Uning sochlari darveshona to'zg'igan, egnidagi oq xalatni bir yechadi, bir kiyadi. Telefon jiringlaydi.

Darveshali. (Go'shakni olib.) Labbay. Ha, men (kuloq soladi, dag'allik bilan.) Namuncha vahima qilasanlar. Yuragida emas u odamning dardi. Hamma ko'rsatmalarni berib ketdim-ku kecha. O'zing operatsiya qilsang ham bo'laverardi. Yo soqoling ko'ksingga tushgandayam assistent bo'lib yuraverasanmi? Nima deding? Chap oyog'ingiz bilan turganmisiz? Yo'q, o'ng oyog'im bilan turganman... Xotiniمنى yo'qotib qo'ydim. Nega kulasan? Xotiningni yo'qotsang, sen mendan ham battar bo'larding... Nima, nima? Ko'cha to'la xotin. Boshqasiga uylanardim? Sen uylanaver, o'sha, ko'cha to'la xotinlarga. Nima deding. Hazillashdim? Kelib-kelib domlang bilan hazillashasanmi, ablah. Bunaqa hazil uchun yumshoq joyingga tepib haydab yuboraman kafedramdan. Yo'q, xotiniمنى topilmaguncha ishga bormayman. Aytib qo'y bosh vrachga. (Eshikdan kirkanday Gulnozani ko'rib.) E, mana topildi. Yarim soatlarda borib qolaman. (Go'shakni "shaq" etib ko'yadi.)

Gulnoza. Kechirasiz, Darveshali aka. Sizga aytmay ketuvdim. Ozgina hayallab qoldim.

Darveshali. Ozgina emish. Bir soat bo'ldi: ikki ko'zim eshikda. (Dag'dag'a bilan.) Men senga necha marta aytdim. Oyog'ingga yiqilguday bo'lib yalinib-yolvordim. Xudoning qahriga yo'liqqan bu xonadonga qadam bosma, dedim. Sabab bunaqa... gapimga bepisand bo'p qolding, Gulnoz?

Gulnoza. Axir men ham vrachman. Odamlarning og'irini yengil qiladigan insonmanmi? Bemehr bir maxluq emasman-ku axir. Darveshali. Men-chi. Men ham odamlarga o'xshab, xotinimning qo'lidan bir piyola choy ichib ketishga haqqim bormi yo... yaxshisi, og'zimni tikib qo'ya qol, tinch bo'lasan.

Gulnoza. Choyingizni damlab, yaxshi ko'rgan shirguruchingizgacha pishirib, stolga qo'yib ketgan edim-ku...

Darveshali. (kesatib.) Go'yo bilmayman. Sensiz tomog'imdan choy tugul, bol ham o'tmasligini bilmaysan go'yo.

Gulnoza. Bilaman. Nima qilay? Ular qo'shni-ku axir. Xolamlarning ahvoli og'ir. Qon bosimi juda baland. Ilinib turibdi. O'g'illari Sarvar akamlar ham millioner bo'lsalar ham, sho'rpehona: baxtsiz bir odam...

Darveshali. Ha, balli. Hamma balo mana shundan boshlanadi. Avval sho'rpehona deb, peshonalarini silagilaring keladi, keyin boshlarini ko'kraklaringga bosib, yupatgilaring...

Gulnoza. Sizga nima bo'ldi, Darveshali aka? Yo yomon tush ko'rdingizmi bugun?

Darveshali. (kuloq solmay). U xaromi boyvachcha bo'lsa... O'z xotini turib, birovlarining xotiniga tuzoq qo'yadi, don sepadi. Uning soxta ko'z yoshidan ko'ngillaring buzilib...

Gulnoza. Darveshali aka (ko'lini oladi.) Xayol-parast Darveshakam mening.

Darveshali. (Qo'lini siltab tashlaydi.) Baxtsiz emish. Yo uni baxtsiz qilgan menmi? Kim unga el qatori yashash o'rniga, hammadan zo'r bo'laman, hammaning ko'zini o'ynataman, deb uch qavatli koshona qur degan kim? Gulday xotini turib, boshqalarning yosh xotinlariga ko'z olaytir degan kim? Menmi?

Gulnoza. (Toqati toq bo'lib.) Qo'ying-e. Rashk degan ham evi bilan-da...

Darveshali. Rashk - muhabbatning azaliy yo'ldoshi, degan ulug' bir shoir. Rashk qilishga haqqim bor. Zags qog'ozimni yo'qotganing haq. (Ko'kragiga urib). Bo'ynimga tumor qilib osib qo'yibman uni. Turibdi. Agar bu koshonadan oyog'ingni uzmasang, temir qafas yasatib, seni unga tiqib, kalitini cho'ntagimga solib yuraman. O'tirasani, qafasda och bedanaday ko'zlaring mo'ltirab.

Gulnoza. (Kuladi.) Mayli, o'tiraveraman. Don sepib, suv berib tursangiz bo'ldi...

Darveshali. Mushukka o'yin, sichqonga o'lim.

Gulnoza. (qattiqroq kuladi). Siz sichqon, men mushuk bo'ldimmi endi. Qo'ying endi, Darveshali aka. Otellolar zamoni o'tgan.

O'tmagan bo'lsayam men to'yimizda hadya qilgan ro'molchangizni yo'qotmaganman. Hanuz ko'kragimda asrab yuribman.

(Ko'kragidan ro'molcha chiqarib, kulganicha erining yuzi oldida silkitadi.)

(Darveshali ro'molchani yulib olmoqchi bo'ladi).

Darveshali. Ber buyoqqa. Sandiqqa solib qo'yaman. Yo'qotib qo'ysang yoki anovi lo'ttiboz millionerning tuzog'iga ilinib, meni tark etsang...

Gulnoza. (Yolvorib.) Domlajon. Bas qiling bu eski plastinkangizni. O'zgartiring kassetangizni. Boshqasini qo'ying.

Darveshali. Yo'q, eshitasan mana shu eski kassetamni. Oxirigacha eshitasan. Agar mabodo pul hovliqtirib yuborgan bu millionerning xushomadlariga, sandiq-sandiq dollarlariga uchib, uni deydigan bo'lsang bormi?

Gulnoza. (Erkalanib.) Nima qilasz? Aytavering, nima qilasz?

Darveshali. Ha, bilib qo'y: Men Junun... xuddi Laylisidan ayrilgan Majnundek tarki dunyo qilaman, boshimni olib, tog'larga chiqib ketaman. G'orlarni makon qilaman. Gunohga botib qolgan bu diyo-natsiz insonlar bilan emas, sherlar va qoplonlar bilan oshno bo'laman.

Gulnoza. (Chapak chalib.) Hazrati Navoiy bo'p keting-e?

Darveshali. Kul, kulaver men Darveshdan. Bilaman. Endilikda senlar uchun sariq chaqaga aylandi muhabbat rozi. Televizor ekranlari sevgi tug'yonlarini emas, har qadamda bir-biriga xiyonat qilgan, ma'shuqlar, bir-birini pichoqlagan qotillarga to'lib ketdi. Ekranlarda shularni ko'rgilaring keladi, shularni eshitgilaring keladi sen yoshlar. Hanuz sevgi rozlariga inonib yurgan xayolparast biz darveshlar esa, masxarabozlarga aylandik senlar uchun.

Gulnoza. Xudo haqqi, kulyapganim yo'q. Jon qulog'im bilan eshityapman gaplaringizni. Ota-onangiz bekorga Darveshali deb nom qo'ymagan ekan sizga. Rashkingiz kelganda chindan ham shoir bo'p ketasiz. Shoirlarni darveshlarga yaqin deydilar. Darveshlarga esa Olloning nazari tushgan emish. Nima qilay. Men ham sizga shu darveshligingiz uchun mehr qo'rganman, desam inonmasangiz nima qilay? Jarrohsiz. Gaplarimga ishonmasangiz yuragimni yorib ko'ring axir.

Darveshali. (Betoqat qo'l silkitib.) Bilib qo'y. Ismim Darveshali bo'lsa ham, devona emas edim men. Meni Darvesh qilgan sen.

Yodingdan chiqmasin: Men seni... xuddi dengizdan javohir qidirgan g'avvoslardek, necha yil qidirib, sochlarimga qirov qo'nganda arang topib olgan edim.

Gulnoza. (Kulgidan to'xtab.) Men-chi?! Men ham sizga bekorga shogird tushmaganman. Siz hayotdan umidini uzgan bechora insonlarga qaytadan jon ato qilgan paytlaringizda... O'zingiz bilmaysiz, kechalari o'pib chiqardim bu sehrgar qo'llaringizni.

To'xtang. Gapimni bo'lman. Siz meni hech narsani bilmaysan deysiz. O'zingiz ham hech narsani bilmaysiz. Yoshgina qiz, men to'rtinchi kursni tugatib, birinchi bor dong'i ketgan kafedrangizga oyoq qo'yganimda, sizday sochiga qirov qo'rgan badjahl domlani sevib qolaman deb... (yuzini kafti bilan yashiradi)

Darveshali. Mayli. Uyog'iga o'tmay qo'ya qol. Bilaman, hammasini bilaman, azizim. Faqat... manov joyga, bu notinch oilaga qo'shni bo'p qolganimizdan qo'rqaman. Axir sezib yuribman. O'g'irlik, qalloblik bilan topgan pullaringa dunyoni sotib olaman degan bu millionerlar...

(Gulnoz kaftini uning og'ziga bosadi.)

Bo'ldi, bo'ldi. Bas qildim bu gaplarimni.

Gulnoza. Yaxshi, men ham shu bugundan boshlab, oyog'imni tiyganim bo'lsin. Faqat... kampirga rahmim keladi. U kishi xuddi mening marhum oyimlarga o'xshaydilar. Biram muloyim, biram mehribonki. Bilasizmi, u kishi bugun nima dedilar. Xudoyim senlarga qo'chqorday o'g'il bersin, deb duo qildilar.

Darveshali. Sen nima deding?

Gulnoza. Men qiz bo'lsayam mayli, dedim.

Darveshali. Ke, shu gapi uchun arg'amchida bir uchiray seni.

(Shartta ko'tarib, arg'amchiga chiqaradi-da, shiddat bilan uchira boshlaydi)

Gulnoza. To'xtang, to'xtang. O'laman. Qornimdagi qizchayam tushib qoladi hozir.

Darveshali. (Arg'amchini shartta to'xtatib.) Rostdanmi? Qizcha borligi rostmi qorningda? Ke, qorningga quloq solib ko'ray. (Tiz cho'kadi.)

Gulnoza. (Erkalanib.) E, boring-e. Uyatsiz. (Shu payt ko'cha eshik taqillab, hovliga Dilora kiradi. Boshiga ro'mol o'ragan, o'ziyam allaqanday bo'shashgan, jur'atsiz).

Darveshali. Sizga nima kerak bu uyda?

Dilora. Kechirasiz, Darveshali aka. Men... men Gulnozaxonga keldim. Gulnozaxon, jon singlim, kechiring men baxtiqaroni (gandiraklab borib oyog'iga yiqiladi). Men Sizni behuda-besabab haqorat qildim. Xudo shohid: boya nimalar deganimni o'zim ham bilmayman.

Darveshali. Bu qanaqa qiliq? Turing o'rningizdan. Turing. (Darveshali bilan Gulnoza Dilorani ko'tarib to'qima kresloga o'tkazadilar. Gulnoza suv tutadi.)

Gulnoza. Iching. O'zingizni bosing.

Dilora. Men aqli-hushimdan ayrilib jinni bo'p qoldim, singilginam. Erimga nimalar degan bo'lsam degandirman. Biroq siz... sizni besabab tahqirladim, kechiring men sho'rpehonani. Kechiring.

Darveshali. Eringiz bilan urishasizmi, yumdalashasizmi - bilganingizni qiling. Ammo bizni, mening xotinimni tinch qo'ying.

Dilora. (Yig'lamsirab.) Darveshali aka. Siz bunaqa diydasi qattiq odam emas edingiz-ku. Siz odamlarga malham beradigan do'xtirsiz-ku axir. Gulnozaxon, Siz nima indamaysiz? Xohlasangiz... boya qilgan malomatlarim uchun etagingizga tiz cho'kib oyoqlaringizni o'paman. (Yana tiz cho'kmoqchi bo'ladi).

Gulnoza. (Uni to'xtatib.) Yo'q-yo'q, kechirdim, hammasini kechirdim.

Dilora. Sizlardan boshqa dardimni eshitadigan bir musulmon yo'q bu dunyoda. Na iymon qoldi, na insof qoldi bu insonlarda. Uni odam qilgan kim edi. Men yomon uni odam qatoriga qo'shgan. Mening do'konimga kelguncha kim edi u. Tachka haydab yurgan yalangoyoq bir gado edi. Bor bisotim, do'konim, yoshligim, husni-jamolim - barini hadya qildim. Oxiri nima bo'ldi. (Yig'laydi).

Darveshali. Shundoq ekan, shukur qiling bunaqa lo'ttivozdan qutulganingizga.

Dilora. Shukur qiling? Aytish oson buni. Sevsam, yaxshi ko'rsam uni... nima qilay.

Darveshali. Sevsam. Tilingizga olmang bu muqaddas, pokiza so'zni. Harom qilasiz bu so'zni.

Gulnoza. (Erini chetga tortib.) Qo'ying, ko'rib turibsiz-ku sho'rlikning ahvolini.

Dilora. Boshda bunday emas edi u, Darveshali aka. Insofli edi, diyonatli edi. Pul yo'ldan urdi uni. Endi pul sochib, farzandlarimdan judo qilmoqchi meni.

Darveshali. (Qutidan dori olib.) Iching buni. Hech kim sizdan bolalaringizni tortib ololmaydi. Qonun siz tomonda. O'zingizni bosing.

Dilora. Qonun deysiz. Kimning cho'ntagi qappayib tursa o'sha tomonda qonun... Men jinni bo'p qoldim, aqlimdan ozyapman...

Darveshali. Endi tushundingizmi bu haqiqatni. Boshingiz devorga borib tekkanda aqlingiz kirdimi? Kecha qaerda edingiz?..

Gulnoza. (Erini chetga tortib.) Qo'ying. O'lganning ustiga chiqib tepmoqchimisiz? O'tiring, opajon (to'qima kresloga o'tkdzadi). O'zingizni bosing. Hamma narsa yaxshi bo'p ketadi. Hal bo'lmaydigan narsa yo'q bu dunyoda. O'zingizni bosing. (Ko'cha eshik taraqlab ochilib, ro'moli bir tomonga og'ib, sochlari to'zg'igan Mehriniso aya ko'rinadi.)

M y e h r i a y a. Bolam, Darveshali. Gulnoza qizim. Bolajonim yiqilib qoldi. Nafasi yetmay yuragini changallab yotipti.

Darveshali. (Qovog'inni o'yib.) "Tez yordam"ni chaqirish kerak edi, xolajon.

A ya. Tez yordaming bor bo'lsin, o'g'lim. Bomdodda chaqirsangiz xuftonda arang keladi, jon bolam. Tezroq bo'laqoling. Nafasi yetmay bo'g'ilib yotipti, bolajonim.

Gulnoza. Domlajon! (Sal chetga tortib shivirlaydi). Chiqmasangiz bo'lmaydi, domlajon. Yon qo'shni - jon qo'shnimiz. Mahalla-ko'y eshitsa nima deydi?

Darveshali. Xo'p. Chiqaman. Lekin namuncha titraysan? To'lg'anasan? Mening yuragim tutib qolgandayam munchalik ranging o'chmas edi-ku!

Gulnoza. Ustoz...

Darveshali. Bo'ldi, ketdik. Jarrohlik qutichamni ol!

Dilora. Voy o'lmasam.

Darveshali. Xo'p, yuring, aya.

Gulnoza. (Hayajonda.) Dorilaringizni olasizmi?

Darveshali. Ol. Har ehtimolga qarshi jarrohlik narsalar solingan chamadonimni ham ol. Ha, aytmoqchi, klinikaga telefon qil.

Bugungi operatsiyamni ertaga qoldirishsin. Assistentlarim bilan hamshiralar bu yoqqa kelishsin. Ketdik, xolajon.

(Gulnoza ichkariga otildi.)

(Mehriniso aya, og'ib ketgan oppoq ro'molini tuzata-tuzata Darveshalining ketidan pildiraydi.)

A ya. Baraka top, jon bolam. Xudo senlarni bizga qo'shni qilganiga ming qatla shukur, ming qatla shukur.

Dilora. (Boshini changallab.) Voy xudoyim. Men nima qilaman endi. (Ichkaridan oq xalat, oq qalpoq kiyib Gulnoza chiqadi.

Qo'lida chamadoncha, ko'cha tomon otildi. Dilora uning orqasidan ergashadi.) Gulnoza. Jon singlim.

Gulnoza. Yo'-yo'q. Siz chiqqa ko'rmang. Sizni ko'rib yuragi battar bo'lishi mumkin.

(Chiqadi.)

Dilora. Men-chi. Men bu yerda undan burun o'lib qolaman-ku.

(Orqasidan chopadi.)

Parda

Uchinchi ko'rinish

Tanish hovli, tanish koshona. Hovli, xuddi o'lik chiqqandek, og'ir sukutda. Bir-ikkta oq xalat, oq qalpoq kiygan ayol-erkak, biri kirib, biri chiqib turadi. Hovlida allaqanday tahlakali holat hukmron.

Koshona oldida, qo'lida uyali telefon tutib Bo'rsiq o'tiribdi. O'rtadagi shiyponga yozilgan ko'rpachada qo'sh yostiqaqqa suyanib, Mehriniso aya o'tiripti, uning yonidagi kresloda boshi egik Dilora. Mehriniso aya o'rnidan turmoqchi bo'lib, yostiqdand boshini ko'taradi.



Dilora. Qimirlamang, oyijon, qimirlamang. Do'xtir aytganlar, o'rnidan turmasin, deganlar. Nima kerak? Suv beraymi, oyijon?

A ya (shikasta tovushda). Suving ham bor bo'lsin. Ichkaridan xabar yo'qmi?

Dilora. Bo'p qolar, oyijon. Xudo xohlasa yaxshi xabar bo'p qolar. Sabr qiling, oyijon.

A ya. O'zing kechirgaysan, e parvardigor. Qanday sabr qilay? U yoqda bolajonimning ko'kragini yorishayotgan bo'lsa, bu yoqda.

Hoy, qizginam-ey, qizginam-ey. Nimalar qilib qo'yding, qizginam-ey. Yeganing oldingda, yemaganing orqangda edi. Egningda, amriqolik kiyimlar, tagingda amriqolik mashinalar. Tag'in nima yetmasdi senga, qizginam?

Dilora (tuyqisdan avvalgi holatiga kelib). Nega yongan yuragimni battar yondirasiz, oyijon? Nega hamma aybni menga to'nkaysiz-u, o'g'lingiz boshimga solgan savdolarni ko'rmaysiz? Mendan qutulish maqsadida arzandangiz nimalar qilmadi? Mast-alas jo'ralarining davrasiga tashlab, o'zi gumdon bo'ldi-yu, ertasiga tuhmat, barcha malomatlarini men sho'rlikni boshiga yog'dirdi.

A ya. Mayli, bolam, mayli. Uyog'iga o'tmay qo'ya qol. Usiz ham ne holda yotibman... (yostiqqa suyanadi).

Dilora. Kechiring, oyijon. Achchiq ustida nima deganimni ham bilmay qoldim. Hamma ayb men yuzi qaroda. Kechiring, noshukur qizingizni...

A ya. Men kechirdim nima-yu, kechirmadim nima, yaratgan egam kechirgay barchamizni.

Dilora (yig'lamsirab). Men ham Ollohdan shuni tilayman. Iloyo, o'g'lingiz shifo topsin. Ayttingizni qilaman. Kelin emas, cho'ringiz bo'laman, oyijon.

A ya. Seni cho'ri qilib nima qilay, bolam? Sen ikkoving murosaga kelib, yarashib ketsalaring, men ham qariganimda tinchgina o'lardim, qizginam.

(Darvoza qo'ng'irog'i jiringlaydi. Hovliga qo'llarida quticha, ikki odam kiradi. Soqchidan: Bemor q'ayoqda, deb so'rashadi. Soqchi qo'li bilan koshonani ko'rsatadi. Bo'rsiq apil-tapil o'rnidan turadi.)

Bo'rsiq. Bu yoqqa, bu yoqqa marhamat qilsinlar. Qadamlariga hasanot.

Kelganlardan biri. Operatsiya boshlandimi?

Bo'rsiq. Boshlandi, boshlandi. Marhamat, o'zim yo'l ko'rsataman (ichkariga kirib ketadilar).

A ya (besaranjom). Tag'in birbvlar kelishdimi? Kimlar ekan bular?

Dilora. Kim bo'lardi. Do'xtirlar-da. Toshkentda qaysiki katta do'xtir bo'lsa hammasi sho'tta. O'likni tiriltiradigan professorlar bular.

A ya. Tufe de. Bandasining joni Ollohning qo'lida.

Dilora (bepisand). O'g'lingiz ham osonlikcha jon taslim qiladiganlardan emas. Yigitmisan yigit, o'g'lingiz. Biz qanday topishganimizni bilmaysiz, oyijon (yashnab, tobora yayrab). Ikkimiz ham yosh edik. Men yosh bo'lsam ham olov edim, shayton edim.

A ya. Shayton haliyam.

Dilora (kinoyani sezmay krladi). Ot bozorida do'konim bo'lardi. Hamma do'kondorlar oshiqu beqaror edilar menga. O'g'lingiz bo'lsa qo'limda yuk tashirdi. Kichkina tachkasi bo'lardi. Tachka haydasa ham o'zi xo'p kelishgan yigitcha edi-yu... Lekin, meni kechirasiz, oyijon, og'zidagi oshini eplab icholmaydigan lapashang edi (kuladi). Bir kun, yovvoshdan yo'g'on deganlaridek, landovur o'g'lingiz deng...Nikolay poshshoning bitta oltin tangasini qo'ynidan chiqarib ko'rsatsa bo'ladimi! Qayoqdan olding, desam, dadam berdilar, bobom rahmatlik nabiramga deb atagan ekanlar, dedi.

A ya. Ha, dadasi rahmatlik, o'lim to'shagida yostig'ining tagidan olib bergan edi. Bir tanga emas, o'n tanga edi...

Dilora. Rost, rost. Ertasiga qolgan to'qqiztasiniyam opkep berdi. Men ularni aylantirib-aylantirib bir oy ichida bir chemodan pul qildim.

A ya. Ha, esimda. Bolajonim o'shanda bir oy yo'q bo'p ketgandi. Men bo'lsam erim rahmatlikka, yosh bolaning qo'liga oltin tutqazib, bolajonimning boshiga yetdingiz deb, sho'rlikni adoyi tamom qilgandim.

Dilora (shirin esdaliklardan entikib). O, oyijon, oyijon. Siz nimani ham bilasiz... Qanaqa totli, qanaqa go'zal boshlangandi bizning turmushimiz. Endi eslasam... Bu dunyoga kelib ko'rgan eng shirin, eng baxtiyor damlarim ekan o'sha damlar. O'g'lingiz bamisoli gijinglab, depsingan toychoq edi u mahalda. Kechasi bilan uyqu bermasdi. Dod, o'laman desam ham, qo'yib yubormasdi qo'ynidan (zavqlanib kuladi). Biram yomon edi, biram yomon ediki o'g'lingiz.

A ya (yolvorib). Hoy, senga nima bo'ldi, kelinposhsha. Birovga to'y, birovg'a aza, degan ekan bir notavon. Bolam sho'rlikning holi nima bo'lyapti, nima qo'yayapti deb, arosatda qovurilib yotibman-ku, sen bo'lsang...

Dilora. Kechiring, ayajon, yaxshi kunlar esimga tushib, xayolim chalg'idi. Nima bo'lgandayam, o'shanda birovlarning yukini tashib, tachka sudrab yurgan bolangizni odam qilgan mana shu yomon Dilora edi. O'n tillani bir chamadon pul qilib, uni boy qilgan ham, millioner qilgan ham mana shu yomon keliningiz edi, oyijon.

A ya (toqati toq). Yuragimni tars yoraman demasang, qo'y deyapman bu gaplaringni. Och qornim, tinch qulog'im. Bu boylik, bu koshonalaringdan erim rahmatlikning yomon chaylasiyam yaxshi edi bizga.

(Ichkaridan Gulnoza chiqadi va shosha-pisha darvoza tomon yo'naldi.)

(Talpinib.) Hoy, Gulnoza qizim. Qayoqqa shoshayapsan? Nega indamaysan?

Gulnoza. Bir dori kerak bo'p qoldi, shunga ketyapman. Hozir kelaman, xolajon, hozir.

A ya. Qizginam-ov. Meni o'lib qolmasin desang, bir nima deb ketsang-chi, bolam. Yuragim chidamaydi-ku, yuragim...

Gulnoza. Hammasi yaxshi bo'ladi, xolajon, hammasi...

(Chopqillab chiqib ketadi.)

A ya (orqasidan duo qiladi). Iloyo umring uzoq bo'lsin. Qo'shganing bilan qo'shaqarigin. Biram shirinsuxan juvonki. Og'zidan bol tomadi. Ibrat olsang bo'lardi undan.

Dilora (g'ashi kelib). Mayli, oyijon, mayli. Birovning nomi yomonga chiqsa, hamisha yomon bo'larkan, birovning nomi yaxshiga chiqsa, hamisha yaxshi bo'larkan. Shu shirinsuxan tili bilan barchangizni avrab olgan bu qiltiriq nozanin.

A ya. Bilib-bilmay birovg'a tuhmat qilma, gunohga botasan, bolam.

Dilora. Siz nimani bilasiz, oyijon. Siz bahona diydor g'animat. Sizga ukol bahona, har kuni o'zi o'g'lingizga ukol qildirtirib ketadi, bu jonon.

A ya. Hoy, nimalar deyapsan, kelinposhsha. O'g'lim do'xtirmidiki ukol qilsa.

Dilora. (Ayani quchadi.) Biram soddasiz, biram sodadsizki, oyijon, keling, shu soddaligingiz uchun bir o'pib qo'yay.

A ya. Yo'-yo'-o', roziman. Og'zingdan qo'lansa hid kelyapti, nima balo, saharmandondan bir baloni ichib olganmisan?

Dilora. Ichmay nima qilay? Necha kun bo'ldi, o'zimni qo'yarga joy topolmayman. Yorug' dunyo ko'zimga tor bo'ldi, oyijon. Tor bo'ldi.

(Koshonadan Bo'rsiq chiqadi va Dilorani imlab chaqiradi.)

Men hozir, oyijon. Ah, Bo'rsiqvoy, nima gap? Tinchlikmi?

(Bo'rsiq, Aya eshitmasin degan ma'noda barmog'ini labiga bosadi.)

Bo'rsiq (shivirlab). Bir protsent.

Dilora. Tushunmadim.

Bo'rsiq. Nimasini tushunmaysiz? Operatsiya qilayapganlar aytishayapti, umid bir protsent, deyishyapti.

Dilora. E, xudoyim. Tag'in ne kulfatlarni solmoqchisan boshimizga?

Bo'rsiq. Sizga qilgan shuncha zug'umlaridan keyin namuncha iztirob chekasiz? Kampirmi daf qiling. Uyiga kirib yotsin. Sizga aytadigan muhim gapim bor.

Dilora. (shivirlab). Kampirning ikki qulog'i ichkarida. Kirmaydilar uylariga.

Bo'rsiq. Aldab-suldab opkirib, yotqizing. Darvesh do'xtir aytdi deng. Sizniyam ko'rishar ekan, ukol qilishar ekan, deng. (Dilora joyiga qaytadi.)

Dilora. Oyijon. O'rningizdan turing. Uyingizga kirib yotar ekansiz.

A ya. Fikri-zikrim bolamda bo'lsa-yu, uyda pishirib qo'yibdimi menga. Shaytonga saboq beradigan anov tullak tag'in nima baloni topib keldi?

Dilora. Yo'q-yo'q. Yomon gapi yo'q uning. Siz yaxshi ko'radigan Darvesh do'xtir aytibdi: ayajonimni ham ko'rib qo'yaman, uylariga kirib yotsinlar deyapti. Turaqoling, oyijon (qo'ltiqlab o'rnidan turg'izadi). Yuraqoling.

A ya. Mendan bir nimani yashirayapsanlar-ov. E, xudoyim. O'zing najot ber. Yolg'iz sendan kutaman madadni. Yolg'iz o'zingdan, yaratgan egam!

(Ichkariga kirib ketadilar. Telefon jiringlaydi.)

Bo'rsiq. (Yonidan uyali telefonni olib.) Eshitaman. Ha, ha, men o'zim. E, e, e, parvo qilmang. Hech qanaqa kinoyam bo'lgan emas.

Video ham. Qo'qonpo'pisa hammasi. Ammo-lekin qo'rqib ketganga o'xshaysiz. Og'ayning ishtoniga haligidaqa qip qo'ydi, deb maqtandi-ku bu hovliqma. Labbay? Darrov eshitibsiz-da. Nima bo'lardi - yuragi darz ketgan. Umid yuzdan bir protsent emish.

Xorij? E, xorij u yoqda tursin, hatto qo'zg'atish ham xatarli deb, sho'tning o'zida olishyapti do'xtirlar. Sabab? Sababi - asab.

Xotinini haydab yuboriptiki, halovat yo'q uyida (u yoq-bu yoqqa qarab qo'yadi).

E, e, jon aka. Sizday akajonimdan jonimni ham ayamayman. Til topishsak, yarim narxiga ham bervora-man aytgan odamingizga.

Labbay? Bo'pti-bo'pti. Sizday akajonim taklif qiladi-yu, ukangiz yo'q dermidi? Qaerda? Xitoy restoranida? Soat o'n ikkida.

Kechasi-ya? Anov xipcha bel kitayankalar yelpig'ichlari bilan yelpib turadilarmi? E, zo'rsiz, akajon, zo'rsiz-da. Bo'ldi, akajon, bo'ldi. Maboda yurolmay qolsam, emaklab boraman, akajon.

(Kuladi. Telefonni o'chirib, qo'llarini ishqalaydi).

Ha, xudo bor bu dunyoda! Mazax qilib, ustimdan kulgani-kulgan edi. O'z ismim turib Bo'rsiq deb kalaka qilardi. Hali ko'ramiz kim kalaka bo'ladi.

(Qo'ng'iroq chalinib, Gulnoza kirib keladi.)

E, e, Gulnozaxon. Qidirgan dorilari topildimi, akosi?

Gulnoza. Topildi, topildi.

Bo'rsiq. Bir daqiqa, akosi. Operatsiyadan keyin opketasizlarmi Sarvarjonni?

Gulnoza. Yo'g'-e. Avval o'ziga kelsin. Keyin ma'lum bo'ladi opketamizmi, yo'qmi. E, xolamlar qanilar?

Bo'rsiq. Xolangizniyam ahvoli og'irlashdi. Uyg'a opkirib ketishdi.

Gulnoza. Hozir o'zim qarayman, hozir.

Ketadi.

Bo'rsiq. E, bu nozaninlar, nozaninlar. Og'zidan bol tomadi-ya, Sarvar akamlar deganda. Nimasiga bunaqa besh ketishadi xudo husn berib, aql bermagan bu sanamlar.

(Ichkaridan Dilora chiqadi.)

Dilora. Boyagi shumxabarni qayoqdan topding? Umid bir protsent deb kim aytdi senga?

Bo'rsiq. Siz xotinlarga hech tushunib bo'lmaydi. Uch taloq qilgan odamga joningiz achiyaptimi?

Dilora. Nega jonim achimas ekan. Yaxshi bo'lsin, yomon bo'lsin, ko'z ochib ko'rgan jufti halolim. Ikki farzandimning otasi.

Bo'rsiq. Kechirasiz. Bunaqa bo'lsa tilim lol. Qaytib oldim so'zimni.

Dilora. Xudosini aytgan - berdisini ham aytadi, shaytonni avragan tullak. Tilyog'malik qilavermay gapir gapiradigan gaping bo'lsa.

Bo'rsiq. Gapirsam... Sudda ajrimga ko'nmay ko'p yaxshi ish qilgan ekansiz...

Dilora. Shunaqami? Kecha emasmi men sho'rlikni ikki farzandimdan judo qilaman deb, xurjuningni dollarga to'ldirib, anov muttaham yuristga yugurib yurganing?

Bo'rsiq. Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, Diloraxon. Ojiz banda - xudo ojiz banda, deb bekor aytmaganlar bizlarni.

Dilora. Maqsadga o't. Shumtaka.

Bo'rsiq. Maqsadga o'tsam... (ovozini pasaytirib) basharti anov telba do'xtir xo'jayinning jonini asrab qolsa ham... bundan buyon ko'rgani mana shu hovli, mingani kolyaska bo'p qoladi eringizning (u yoq-bu yoqqa qarab oladi), hokimi mutloq o'zingiz bo'lasiz bu dargohda. Bu koshona ham, banklardagi schyotlar ham, supermarketlardagi mollar hamma-hammasi sizniki bo'ladi. Ilgarigidek jilovni qo'lga oling, Diloraxon. Agar birga bo'lsak, o'ynatib yuboramiz biznes deganni.

Dilora. Shunaqa deng: O'ynatib yuborasiz de...

Bo'rsiq. Axir qanaqa do'konlaringiz bor edi. Butun shahar sizga kelardi. Husni jamolingizini tamosha qilgani kelardi ko'plar. Biz sadoqati zohir qulingiz ham qarab to'ymas edik shahlo ko'zlaringizga. Bitta shu naynov go'rso'xtani deb hammasidan voz kechdingiz.

Dilora (masxaraomuz). Shunaqami hali. Bo'rsiqvoy ham oshiqu beqaror bo'lgan ekanlarda opoqisiga. Erimdan chiqib senga tegsammikan, Bo'rsiqqinam. Kechalari qorniginangni silab, kal boshingni ko'ksimga bosib, peshonangdan o'pib yotsammikan, Bo'rsiqjon?

Bo'rsiq (birdan portlab). Bo'rsiq emas, mening ismim! So'yloq eringiz yopishtirgan menga. Bo'ri, Bo'rivoy mening ismim.

Dilora. Hoy, ovozingni o'chir. Devorning ham qulog'i bor.

Bo'rsiq. Nega bo'lmasa kalaka qilasiz meni. Xudo men sho'rlikni pakana qilib yaratgan bo'lsa, gunohim nima, men bechoraning.

Gap bo'yda emas-ku axir. Xudo bo'y berib, aql bermagan bu darozdagi narsa menda ham bor. Unikidan kam emas.



Dilora. Nima deb valdirayapsan? Undagi mol-dunyo menda ham bor demoqchimisan?

Bo'rsiq. Mol-dunyo emish. Bo'yga qaramaydi u sabil!

Dilora. Nima deb valdirayapsan, surbet? Indamasam, sabilingni ko'rsatishdan ham toymaysan, shekilli? Yaxshi ko'rsang pishirib ye sabilingni. (Yerda yotgan chiviqni olib uradi.)

Bo'rsiq. Uring! Uravering! Sizning qo'lingizda chiviq ham ipakday tegadi-ya! Mayli, nima qilaman desangiz qilavering. Ammo bir narsani bilib qo'ying. Men sizni shunday, shunday sevardimki, to'y qilgan kechalaring hovlidagi yong'oqqa o'zimni osib qo'yishimga sal qolgan.

Dilora (yumshab). To'ydan keyin nog'ora chalmay o'l. Bunaqa oshiqu beqaror ekansan, o'sha mahal aytmaysanmi bu dardingni. Ana oyijon ko'rindi. Art burningni.

(O'z uyidan aya chiqadi.)

A ya. Hoy, kim bor hovlida? E, xudoyim. Bir narsani yashirishayapti bular mendan. Hoy, Dilora. Darvozada nimani shivirlashib turibsan anov shaytonni yo'ldan urgan tullak bilan.

Dilora (ayaga qarab talpinadi). Yo'-yo'q, ayajon. Hech bir yomon gap yo'q. Keling, joyingizga yoting. Hozir Gulnoz tushib ukol qiladi sizga, oyijon. Keling, yoting. Yurish mumkin emas sizga.

A ya. Qo'y-qo'y. Baloyam urmaydi meni. Nafasim bo'g'ilib, yuragim siqilib ketdi uyda.

(Qasrdan kardiogramma uskunalarshsh ko'targan bir-ikki vrach va hamshiralar chiqishadi va darvoza tomon yo'nalishadi.)

A ya. Hoy, bolalarim, qizlarim. Bolajonim nima bo'ldi? Nega og'izlaringda talqon, mendan qochyapsanlar?

H a m s h i r a. Sizga hamma gapni bosh jarroh aytadilar. Bolajoningizi ahvolini undan so'raysiz, xolajon (chiqadilar).

A ya. Hoy, shumtaka. Sen nega mum tishlab turibsan? E, xudoyim, nega bular mendan bolajonimning holini sir tutishadi?

(O'zini kresloga tashlaydi.)

Dilora. Oyijon. Sizga nima bo'ldi, ayajon? Yoting, Darhol yoting.

A ya. E, parvardigor, qarigan chog'imda farzand dog'ini ko'rsatmagaysan. Agar bandang kerak bo'lsa men qoqboshni ol. Yetmish yil umr ko'rib, gunohlarga botgan men alvastini ol, ey yaratgan egam (yig'laydi). Hali o'n gulidan bir guli ochilmagan bolajonimga tegmagil, meni ol, men qoqboshni ol, ey parvardigori olam.

(Qasrdan Darveshali bilan Gulnoza chiqadilar.)

Dilora. Ana, Darveshali akam chiqdilar. O'zlari aytadilar.

A ya. Darveshali, o'g'ilginam. Bir nima de, men sho'rlikka. Seni kutaverib, adoyi-tamom bo'ldim, bolaginam.

(Aya ular tomon talpinadi-yu, qoqilib ketadi. Dilora bilan Gulnoza ayani ushlab qoladilar.)

Gulnoza. Yoting, xolajon, yoting.

A ya. Meni qo'yaver, qizim. Men qoqbosh o'lmayman. Darveshali, jon bolam, sen nega indamaysan?

Darveshali. O'g'lingizdan tashvish tortmang. Operatsiyadan keyin kerakli dori berib uxlatib qo'ydik. Hammasi yaxshi bo'ladi, xolajon, hammasi.

A ya. Rostdanmi? Tilginangga shakar. Ke, peshonangni bir o'pib qo'yay.

(Talpinib o'rnidan turdi-yu, asta yiqila boshlaydi. Darveshali ushlab qolib, ko'rpachaga yotqizadi.)

Dilora. Voy, oyijon. Sizga nima bo'ldi, oyijon?

Gulnoza. Ukol qilaymi, Darveshali aka?

(Darveshali ayaning yoniga cho'kkalab ko'krigiga quloq soladi, so'ng asta turib, boshidan qalpog'ini oladi.)

Darveshali. Yurak g'am-hasratdan darz ketganini ko'p ko'rgan edim, quvonchdan darz ketganini birinchi ko'rishim. Bebaho ayol edi, xudo rahmat qilg'ay.

Dilora (faryod chekib). Voy, oyijon. Men baxtiqaroni kimlarga tashlab ketdingiz?

Gulnoza . Xolajon. Xolajonim mening.

Darveshali. Bas. O'chiringlar ovozlaringni. Bo'rsiqvoy.

Bo'rsiq. Labbay, Darveshali aka.

Darveshali. Bu uyda hech qanday yig'i-sig'i bo'lmasin. Agar faryod bemorning qulog'iga chalinsa ertaga bu dargohdan bir emas, ikki tobut chiqadi. Sovuqxonangiz bormi?

Bo'rsiq. Bor, do'xtir aka.

Darveshali. Ayajonni o'sha xonaga qo'yib ikki kun muz bilan asraysiz. Indin bemorni klinikaga olib ketamiz. Keyin ta'ziya e'lon qilasz. Tushundingizmi?

Bo'rsiq. Tushundim. Hammasiga tushundim, Darveshali aka.

Darveshali. (birdan ko'ngli bo'shab). Ayajon, ojizlik qildim. Gunohkorman. Avf eting meni. O'g'lingizni asrab qoldimu, sizday ayajonimni asrab qololmadim, kechiring meni, ayajon!

Parda

To'rtinchi ko'rinish

Tanish hovli. Hozirgina hovlida ayaning qirqi o'tgan. Odamlar deyarli tarqab bo'lishgan. Xizmatkorlar va soqchilar stollardagi lagan-tovoqlarni yig'ishtirib yurishibdi. Shiyponda domla-imom. Darveshali va yana bir-ikki mo'ysafid, chetroqda esa Dilora bilan Gulnoza o'tirishipti. Koshonadan Bo'rsiq chiqadi va shiyponga kelib tavoze bilan salom berib o'tiradi.

Imom. Mana diyonatli pokiza inson ayamizning qirqi ham o'tdi. Yaratgan egam bugun ayamizga atab o'tkazilgan marosimlaringizni, jamoaga bergan xayri-ehsonlaringizni o'z dargohida qabul qilgay. Marhuma ko'p yaxshi ayol edilar. Iloyo, Olloi Taolo u kishiga o'z jannatidan joy ato qilgay. (Hamma fotihaga qo'l ochadilar.) Ilohi omin.

Darveshali. To'g'ri aytdingiz, taqsir. Farishta ayol edilar. Necha marta o'z ko'zim bilan ko'rganman, soqchilar sadaqa tilab kelgan yetim-esirlarni urib-tepib haydaganlarida ularni urishib-so'kib, katta-katta hayri-ehson qilardilar. Haqiqatan jannati ayol edilar.

Bo'rsiq. Iloyo omin.

Dilora. Oyijonim. Oyijonginam. Kimlarga tashlab ketdingiz bizni.

Gulnoza (uni kuchib). Qo'ying, o'zingizni bosing, opajon...

Imom. Sabr qiling, qizim. Inshoolo Massobirin inchunin: Ollo sabr qilguvchilar bilan birgadir deganlar. Sabr qiling, bolam. Endi bizga ruxsat bersalar...

Bo'rsiq. Hozir, taqsir, hozir. Xo'jayin sizga o'z izzati-ikromlarini shaxsan izhor qilmoqchilar... Mana, o'zlariyam...

Koshona zinasida egnida beqasam to'n, belida belbog', boshida do'ppi, Sarvar chiqadi. Juda ozgan, yuzlari so'liqqan. U shiyponga kelib o'tiradi.

Sarvar. Sizga katta rahmat, taqsir.

Imom. Sizga ham rahmat, uka. Onaizorining ruhini shod etgan farzand, u dunyo-bu dunyo Oллоhning inoyatiga sazovor bo'lgusidir. Endi bizga ruxsat, ukajon.

Sarvar. Bir daqiqa sabr qilgaysiz, hazratim. Gunohkor banda, o'lim to'shagida yotganimda bir niyat qilgan edim. Shu niyatimga oq fotiha bersangiz...

Imom. Jonim bilan, inim.

Darveshali. Bo'lmasa bizga ruxsat, Sarvarbek.

Sarvar. Yo'q, sizga ham ruxsat yo'q, do'xtir. Qilgan niyatimning sizga ham daxli bor... Gap shundaki, azazi taqsir, Onaizorim, volidai mehribonim men sabab olamdan o'tdilar, men, takabbur banda esam tirik qoldim.

Imom. Bunday demang, inim. Bu bebaqo dunyoda neki ish sodir bo'lsa, bari Oллоhning irodasidandir, uka.

Sarvar. Xullas kalom, bu ko'rguliklardan keyin kamina bu o'tkinchi dunyoning barcha lazzatlaridan voz kechib, Hajga ketishni niyat qildim.

Imom. Barakallo, uka, barakallo. Ko'p yaxshi ishga bel bog'labsiz. Haj - musulmonchilikning beshta farzidan biridir.

Alhamdilullo. Siz ham musulmonsiz. Niyatingizga yeting.

Sarvar. Tashakkur, hazratim. Toki, muqaddas makonlarimiz Makkai Mukarrama va Madinai Munavvarani ziyorat etsam, dargohi ilohiy va janob payg'ambarimiz qabrini ziyorat qilsam... barcha gunohlarimni yodimga olib, tavba-tazarru etsam, deyman, taqsir...

Imom. Ilohi ovmin.

Sarvar. Siz hazratimdan iltimos: bandai o'jizning bul niyatini mahalla ahli va maschitimiz qavmiga yetkursangiz...

Imom. Bajonudil, bajonudil...

Sarvar. Yana mahalla ahliga yetkaysangizki osiy banda shu mahallada istiqomat qilib, kimlargaki ozor bergan bo'lsam, ularning har biridan kechirim so'rayman. Mabodo, hajda biror kuru hol yuz berib, qayta ko'rishmoq nasib etmasa...

Dilora. Qo'ying bunaqa gaplaringizni (yig'lab). Yaxshi niyat qiling undan ko'ra, yaxshi niyat qiling.

Sarvar. Yana bir niyatim - Haj safariga o'tlanishdan avval mahalla maschitiga bir million so'm xayri ehson qildim...

Imom. Olloi Taolo o'z dargohida qabul qilgay bu ehsoningizni...

Sarvar. Mahalla kam-ko'stlari va yetim-esirlari uchun o'n million so'm qoldirdim...

Dilora. (sekin). Muncha ko'p. Besh million ham yetar edi.

Sarvar. (unga kuloq solmay). Bu pullarning hammasini shu bugun, kechi bilan ertaga manov Bo'rsiqvov... mening yordamchim yetkazib beradi sizlarga.

Imom yo n i d a g i m o' y s a f i d. Biz ham shu bugun bu inoyatingizni mahalla ahliga yetkazamiz, uka.

Sarvar. Juda chiroyli tilovat qilar ekansiz, taqsir. Yana bir tilovat qilib, bizga oq yo'l tilasangiz.

Imom. (Tilovat qiladi.) Alhamdulillohi Robbi a'lamin, Rahmoni Rahim (pichirlab duo qiladi). Yaratgan egam siz bandai o'jiz zikr qilgan izhori ixlosingizni o'z dargohida qabul aylab pokiza niyatlaringizga yetkazgay. Ilohi omin (yuziga fotiha tortadi).

Sarvar. Bo'rsiqvov. Bu kishilarga atalgan in'omlarni topshirib, mashinalarda o'z uylariga eltib qo'yinglar...

(Imom va uning sheriklari tavoze bilan xayr-ma'zur qilishib ketadilar.)

Qani, kim bor? Choy-poy keltiringlar. Darvesh ali. Choy ichdik, rahmat. Endi bizga ruxsat, uka.

(Bo'rsiq qaytib kiradi. U nimadandir besaranjom.)

Sarvar. Yana bir daqiqa sabr qiling. Iltimos. Darveshali akamlar bilan Gulnozaxon, boshqalar, bar-chaga ruxsat.

Dilora. Nega meni quvlaysiz? Nega haydaysiz? Qaysi gunohlarim uchun?

Sarvar. (yumshoq). Sening hech bir gunohing yo'q. Gunohing bo'lsa ham kechirdim, roziman sendan. Mana bu koshona, yiqqan boyliklarimizning yarmidan ko'pi senga va farzandlarimga qoladi.

Dilora. Kerak emas molu-dunyongiz. Qorninga emas, qadrimga yig'layman. Siz o'lim to'shagida yotganingizda onaizoringizning hamma marosimlarini o'tkazgan, sizning bo'sag'angizda yotib chumchukday chirqillab Oллоhdan joningizni tilab olgan kim? Mana shu yomon Dilorangiz emasmi?

Sarvar. Sen, azizim, sen. Haj safari oldidan aytaman: men sendan roziman, sen ham rozi bo'l. Gunohkor banda, bekor ranjitdim seni.

Dilora. Shu gaplaringiz rost bo'lsa men baxtiqaroni ham o'zingiz bilan Hajga opketing. Biror korihol bo'lsa yoningizda bo'lay...

Sarvar. Yo'-yo'q. Sen farzandlarim bilan bo'l. Ertalab ularni olib kel. Haj safarimdan avval ularni bir ko'ray. Diydorlariga to'yib, vidolashib qolay...

Darveshali. Xo'p, yetar. Bu spektakllarni ko'p ko'rganmiz. Oilaviy janjallarga toqatim yo'q mening. Yur, Gulnoza.

Sarvar. Yo'-yo'q, juda muhim bir gap bor sizlarga. Mening taqdirim sizning javobingizga bog'liq. Bo'rsiqvov, kennoyingning hurmatini bajo keltirib, mashinaga o'tqazib yubor, og'ayni...

Bo'rsiq. (jur'atsizgina). Yuring, kinnoyijon. O'zingiz eshitdingiz-ku, endilikda siz rahamosiz, hamma narsa Sizga qoladi-ku, bu dargohda.

Dilora. Yo'qol ko'zimdan, hezalak. Sen emasmi, kuni kecha xo'jayiningni o'ldiga chiqarib, menga izhori ixlos qilgan.

Bo'rsiq. Ie, ie. Nima bo'ldi sizga, opajon.

Dilora. Nima bo'ldi emish. Yuzingda ko'zing bormi deb, muhabbat izhor qilganing yolg'onmi?

Bo'rsiq. Rost. Hammasi rost. Ammo bu gaplarni men sizni sinamoq uchun aytgandim. Sizni nima derkin, deb aytgandim bu gaplarni. Endi bildimki, Sarvar akamlarga sizday vafodor yor, sizday sadoqatli do'st yo'q ekan.

Dilora. Yo'qol. Men seni Yago deb o'ylar edim. Sen mingta Yagoni daryoga oborib, suv ichirmay opkeladigan iblis ekansan. Iblis!

Darveshali. Bas. Kekirdagimga keldi bu ipirisqi gaplar, bu tuban o'yinlar. Ketdik, Gulnoza.

Sarvar. Yo'-yo'q. Bir daqiqa sabr qilasiz, Darveshali aka. Bo'rsiqjon, nima dedim senga? Kennoyingning hurmatini bajo qilib, kuzatib qo'y. Yodingda bo'lsin: erta-buruskin, u bu dargohni egallab, hokimi mutloq bo'ladi senga.

Bo'rsiq. Yuring, kennoyi. Hajda nima bor sizga! Axir bu koshona, bu qasr, bu behisob davlat - hammasi sizga qoladi-ku, kennoyi.

Kimdir qarashi kerak-ku bularga. Yuring.

(Dilorani yelkasidan kuchib darvoza tomon boshlaydi.)

(Darvoza oldida.) Hajda nima qilasiz? Ketsa ketavermaydimi? Ayshingizni sursangiz-chi bo'tta. Arabiston - sahroyi kabir-ku.

Tuyadan boshqa biror jonzot turolmaydigan jazirama cho'l-ku.

Dilora. Hoy, Sarvar, nima deb valdirayapti bu tullak bo'rsig'ing?

Bo'rsiq (baland ovozda). Yur, deyapman, behayo shallaqi! Nima qilasan Sarvar akamlarday pokiza, avliyo odamni ranjitib? (Yelkasidan itarib olib chiqib ketadi.)

Darveshali. Menga qarang, og'ayni. Bu o'yin, bu tomosha tugaydimi, yo'qmi? (Gulnozaga.) Sen qolsang-qolaver, men ketdim.

Sarvar. Darveshali aka. Jillaqursa o'z minnatdorchiligimni izhor etishga ijozat bering. Men shaxsan sizga bir million, klinikangizga besh million so'm hadya qildim.

Darveshali. Rahmat, men hech qanaqa sadaqaga muhtoj emasman. Sizga esa jarroh sifatida bitta maslahatim bor: Siz hajga borishdan avval iloji bo'lsa Shveysariya, bo'lmasa Kavkaz kurortlaridan biriga borib bir-ikki oy dam oling. Agar ayg'ir bo'p ketsangiz ham xotin zoti yo'q joylarda orom oling.

Sarvar. Maslahatingiz uchun rahmat. Ammo o'lim bilan olishib yotgan onlarimda Oллоh o'zi ko'nglimga soldi bu niyatni. Endi undan qaytolmayman. Lekin sizga bog'liq bir istagim bor.

Darveshali. Ajab gap. Butun shaharni titratib turgan milliarder odamning kaminaday faqiru haqirga qanaqa istagi bo'lishi mumkin?

Sarvar. Hozir, bir daqiqa, nafasimni rostlab olay, Darveshali aka. Men sizdan toabat minnatdorman. Agar siz bo'lmaganingizda...

Darveshali. Bu gapni bir marta aytdingiz - yetadi. Negadir chaynalyapsiz? Dilingizda nima bor - chaynalmay chiqaravering tilingizga.

Sarvar. Masala shundaki, men sizni xafa qilishdan qo'rqayapman...

Darveshali. Yigitmisiz o'zi yo'?. Ketdik, Gulnoz.

Sarvar. Yo'q, hozir aytaman, hozir. Iltijom shuki, agar siz ruxsat bersangiz... Gulnozaxon men bilan Hajga borib kelsa.

Darveshali. (hayratda). Nima, nima? Gulnozaxon siz bilan Hajga borib kelsa? Kimdan chiqdi bu g'oya? Sizdanmi, janob Sarvarbek, yo sizdanmi, xonim?

Gulnoza. Darveshali aka. Iltimos...

Darveshali. (Darg'azab.) Qanaqa iltimos?

Gulnoza. Darveshali aka... Ustoz.

Darveshali. Ustoz dema meni. Qachon, qaerda til topishdilaring?

Sarvar. Doxtirlar maslahat berishdi. Haj safarida yoningizda Gulnozaxonga o'xshagan birorta yaxshi vrach bo'lsa deyishdi...

Darveshali. Operatsiyani men qilay, masla-hatni boshqalardan oling! Mendan beruxsat. Pinhona maslahatlar!..

Sarvar. Yo'q-yo'q, Sizning ruxsatingiz bilan. Faqat sizning ruxsatingiz bilan! Agar istasangiz birga boraylik Hajga. Hamma xarajatlari mendan...

Darveshali. (Masxaromuz.) Tashakkur. Endi bir qolgani oshig'u ma'shuqlarga hammollik qilish qoluvdi menga! Sochiga qirov qo'nganda, nor tuyaga yuk bo'ladigan charm chamadonlaringni ko'tarib senlarga eshshak bo'lib, xizmat qilish qoluvdi menga.

Gulnoza. Jon Darveshali aka! Domlajon! Tirnoqqa zormiz-ku axir?! Axir eshiting...

Sarvar. Shoshmang, Gulnozaxon. O'zim tushuntiray. Gulnozaxon emas, mendan chiqqan fikr bu, Darveshali aka. Axir o'z ruxsatingiz bilan Gulnozaxon sal kam bir oy tepamda og'zimga suv tomizib o'tirdi-ku.

(Darveshali telbalarcha xaxolab kuladi. U yoqdan-bu yoqqa yurib, ko'zlari yonib gapiradi.)

Darveshali. Xa-xa-xa. Men go'l bo'lmasam, gumroh va nodon bo'lmasam ikkoving ko'z urishtirib yurishlaringni bilaturib, bir oy bir xonaga qamab qo'yarmidim senlarni. Qamab qo'yib, o'zim kechalari shahar ko'chalarida, rashk o'tida qovurilib tentirab yurarmidim gumroh bo'lmasam? Men sen ablahning jonini asrab qolaman, deb o'z shar'iy xotinimni boshingga o'tqazib qo'yib, o'zim 40 kechayu-kunduz uxlamadim. Senlar esa to'xtagan yuraging qayta tepa boshlabdi hamki, madorsiz vujudingga qon yugura boshlapti hamki, menga xiyonat qilish yo'llarini axtara boshlagansanlar. O'ylashib-o'ylashib axiyri Haj bahonasini topgansanlar. Sen muttaha mening bu operatsiyam haqida jahon matbuoti yozganidan xabaring bormi? Insof, adolat, imonu diyonat bormi o'zi senda?

Gulnoza. Darveshali aka (turgan joyida tiz cho'kib). Jon ustoz. Yaratgan egam shohid: Axir men Hajga borishni kuni kecha emas, necha yillardan beri orzu qilib yurardim-ku? Muqaddls Ka'bamiz poyiga tiz cho'kib, Olloi taolodan farzand tilamoq orzusida edim-ku, ustoz? Buni sizga bildirmay kechalari yig'lab chiqardim-ku? Yuragimdan bexabarsiz-ku, yotgan joyimda to'lg'anib tong ottirardim. Axir, mana, o'n yil bo'lyapti, tirnoqqa zormiz-ku, ustoz. Axir siz ham farzand orzusi bilan yashaysiz-ku.

Darveshali. Farzandni kimdan ko'rmoqchisan? Mendanmi yo bu... bu noinsofdanmi?

Sarvar (sekin, ammo shahd bilan). Haddingizdan oshyapsiz, aka.

Gulnoza (yig'i aralash). Sizga nima bo'ldi. Darveshali aka? Nima bo'ldi?

Darveshali. Ko'rib turibsan-ku nima bo'lganini? Jinni bo'ldim. Jinni. Jinni bo'lmasam senlarni qirq kechayu-kunduz qo'shib qo'yib, o'zim shahar ko'chalarida darbadar yurarmidim? Sen ikkoving esa... Men rashk otashida qovurilib tentirab yurganimda... senlar bir-birlaringga muhabbat izhor etib, men lapashang darveshning ustidan kulib o'tirgansanlar..

Sarvar (yokasini ushlab). Yo tavba. Chindan ham aqlidan ozganga o'xshaydi bu odam!

Darveshali. Ha, hali aytdim-ku, akdimdan ozganman deb, jinniman deb.

Gulnoza. Darveshali aka. Qanaqa muhabbat, nima deypasiz o'zi? Axir Sarvar akamlar o'lim to'shagida yotgan edilar-ku?

Darveshali. Daf bo'l. Yaqinlashma menga. Kecha boshlangan emas ikkovingning bu o'yinlaring. Rahmatlik ayajonim bahona, har tong bu dargohga yo'rg'alab yurganingda boshlangan bu mashmasha. Hammasini ko'rib yurganman. Sarvar aka, deganingda og'zingdan bol tomishidanoq bilardim buni.

Gulnoza. Darveshali aka. Quloq soling mengayam.

Darveshali. Ilohiy makonlarimizni ziyorat qilmoqni niyat qilgan ekansan, muqaddas Ka'ba oldida tiz cho'kib, yaratgan egamdan farzand tilamoqni orzu qilgan ekansan... sabab, men turib, olloh qovushtirgan juftaloling turib, pul quturtirgan bu noinsof bilan nega Hajga o'tlanasan? Yo men seni Hajga olib borishga qurbim yetmasmidi?

Sarvar. E, Darveshali aka, Darveshali aka. Dilingizda bunday shubha, xayolingizda bunday alamli o'ylaringiz bor ekan, nima qilardingiz meni o'limdan asrab qolib? (Qalqib ketib, ustunni kuchoklab krladi).

Darveshali. Bas, bo'ldi. Ikkovingga ham ruxsat. Hajga borasanlarmi, yo anov... fohishabozlar makoni bo'lmish Kanar orollariga borib, ayshi-ishrat qa'riga g'arq bo'lasanlarmi, yoki qora tanli zanjillar bilan qilpillashib (masxaraomuz harakatlar bilan o'ynab ko'rsatadi) bugi-bugiga tushib, harom-xarish nag'malar qilasanlarmi, ixtiyor o'z'laringda.

Gulnoza. E, yaratgan egam: nima bo'ldi bu odamga?



This is not registered version of TotalDocConverter

Darveshali. Yo'q, darveshali. Uygulgan ayolga o'qimaymi? Ko'i sahrolar va tog'larda makon quraman, qolgan umrim shaqollar va qoplonlar bilan oshnolik qilaman (yana masxaraomuz ko'l siltab). Privet sevishganlarga.  
Gulnoza (orqasidan talpinib). Darveshali aka. To'xtang, Darveshali aka.  
Sarvar. Gulnoza, menga qarang, Gulnoza. (Gulnoz to'xtaydi. Tili g'o'ldirab). Nima qilmoqchisiz? Ko'rib turibsiz-ku, sog' emas, bu odam.  
Gulnoza. Meni kechirasiz, Sarvar aka. Nima bo'lganda ham, men bu kishining xasmiman, uni tashlab, siz bilan ketolmayman.  
Sarvar. Gulnoz. To'xtang, Gulnoz.  
(Tashqaridan Bo'rsiq kiradi.)  
Bo'rsiq. Nima gap? Nima bo'lyapti?  
Gulnoza. Qo'ying. Sarvar aka, Qiynamang meni.

(P\$PsPiPëP± C‡PëT>PëP± PcPµC,P°PrPë.)

Sarvar. O, Gulnoza, Gulnoza (yuragini changallab sekin ingraydi, shiypondagi so'riga yonboshlaydi. Bo'rsiq yugurib keladi).  
Bo'rsiq. Nima bo'ldi? Tag'in yurakmi? Yigitlar! Do'xtirga chopinglar, do'xtirga.  
Sarvar. Yo'q, kerak emas, hech kim, hech narsa kerak emas. Bu safar... tamom, vassalom. Seni ko'p qiynaganman, dashnom berganman. Rozi bo'l, rozi bo'linglar...  
Bo'rsiq. Nima deyapsiz, xo'jayin? Hali yuz yil yashaysiz...  
Sarvar. Yo'q, yashab bo'ldim.  
Bo'rsiq. Axir bu koshona, bu moli-dunyo, peshona teringiz bilan yiqqan bu boylik kimga qoladi? Voris kim bo'ladi, kim?  
Sarvar. Voris? Qanaqa voris? (Og'ir hansirab.) Bilmadim, bilishniyam xoxdamayman. Bitta-yu bitta tilagim, yolg'iz vasiyatim - meni onajonimning yoniga qo'yinglar. Bu dunyoga kelib, bir on orom olmadim. Bolalik chog'larimdagidek... onaizorimning bag'riga kirib orom olay, orom...  
(Chiroq o'chadi. Qorong'ida olisdan "Cho'li iroq" kuyi asta yangrab, avjiga chiqadi.)

Parda

Xotima

Darveshaling tanish hovlisi. G'ira-shira qorong'ulikda Darveshali hovlini xayolchan aylanib yuribdi, ichkaridan, qo'lida chemodan, Gulnoza chiqadi. Sahna yorishmaydi. Projektor qim gapirsa shuni - birda Darveshalini, birda Gulnozani yoritadi.  
Gulnoza. Yo'lga chiqishdan avval bir daqiqa o'tirmoq kerak, deyishadi. Men ham bir daqiqa o'tiray (chemodanini qo'yib, to'qima kresloga o'tiradi).  
Darveshali. Koshkiydi bir daqiqa emas, bir umr o'tirsang shu kresloda.  
Gulnoza. Ne chora? Endi buning iloji yo'q. Sira iloji yo'q. Darveshali aka. Siz bir sho'rlikning yuragiga malham berib, jonini asrab qoldingiz, asrab qoldingiz-da, o'zingiz tikkan iplaringizni o'z qo'llaringiz bilan chok-chokidan uzib tashladingiz...  
Darveshali. O'n yillik hayotimiz hurmati, vido onlarida yuragimni timdalama, Gulnoz.  
Gulnoza. Barchamiz ham gunohkor bandamiz, dilingizga ozor bergan bo'lsam, kechiring, ustoz.  
Darveshali (miyitda kulib). Kechagina Darveshali aka derding, endi ustoz bo'ldim. Inson hayotining tagiga yetib bo'lmas ekan.  
Tushimda Hajga boribman. Haj baxtiga muyassar bo'lganlar, Ka'ba ziyoratidan keyin Safo tog'i bilan Marv tog'i orasida yetti marotaba yugurishib, Ollo Taolodan gunohlarini kechirishni iltijo qilar ekanlar. Men esam, bu muqaddas tog'lar orasida halloslab yurib, seni yo'qlar emishman, seni so'roqlar emishman.  
Gulnoza. Qo'ying, hozir ho'ngrab yuboraman...  
Darveshali. Mayli. Bundan keyin boshimga ne ko'rgiliklar tushsin, hammasini ko'ray, faqat sening ko'z yoshlaringni ko'rmay.  
Bundan keyin faqiru haqir sening xotirang bilan, sen in'om etgan baxtli kunlar esdaligi bilan yashayman.  
Gulnoza. Men ham...  
Darveshali. Sen hali baxtli bo'lasan.  
Gulnoza. Siz ham...  
Darveshali. Yo'q, sensiz baxt kerak emas menga.  
Gulnoza. Yana birog'iz gapirsangiz... faryod chekib oyog'ingizga yiqilaman.  
Darveshali. Yo'-yo'q. Sen baxtingni topmog'ing darkor. Men esam... qolgan umrim sening xayoling bilan yashayman. Ke, menga baxshida etgan eng saodatli kunlaring uchun aziz peshonangdan bir o'pay...  
Gulnoza (ko'z yoshlaridan bo'g'ilib). Agar mabodo o'sha saodatli kunlar esimga tushib, yo'qlab kelsam... qaerdan topaman sizni?  
Darveshali. Bu shahar, bu dargoh menga yot endilikda. Qidirgudek bo'lsang, men devonani tog'lardan topasan, g'orlardan topasan... Alvido, ko'z ochib ko'rgan yulduzim, yolg'izim, Olloi taolo in'om etgan farishtam!  
(Peshonasidan o'padi.)

Parda

(Birinchi bor sahnalashtirish huquqi Hamza nomidagi O'zbek Davlat Akademik drama teatriga berilgan.)

"Qaydasan, Moriko" kitobidan olindi ("Sharq", Toshkent 2002).